

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YIY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLII ICHIMLIK LARGA QIZIQISHNING IJTIMOII SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOII FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOII OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODII ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYLLAR VA IJTIMOII NOMUTANOSIBLIK LAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

INFRASTRUCTURAL, DIGITAL AND SOCIOCULTURAL DRIVERS OF DOMESTIC TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Ahmedova Fayyoza Rashidovna

Independent Researcher, University of Journalism and
Mass Communications of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the key infrastructural, digital, and sociocultural drivers shaping the development of domestic tourism in Uzbekistan during 2017–2025. The study examines the expansion of tourism infrastructure, transformations in transportation and accommodation sectors, the introduction of digital services (OTA platforms, mobile applications, smart services), and the influence of sociocultural elements—cultural heritage, eventification, and film-induced tourism—on domestic tourism demand. A sociological survey of 403 respondents reveals consumer behavior patterns, the effectiveness of PR channels, and major decision-making drivers within the domestic market. The findings demonstrate that sustainable growth of domestic tourism in Uzbekistan requires the integration of infrastructural modernization, digital transformation, and territorial branding into a unified communication strategy.

Keywords: domestic tourism, infrastructure, digital services, sociocultural factors, PR technologies, PESO model, eventification, film-induced tourism, smart tourism, segmentation.

O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI

Ahmedova Fayyoza Rashidovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: fayyozaahmedova01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2017–2025-yillar davrida O'zbekistonning ichki turizm sohasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar — infratuzilmaviy, raqamli va sotsiomadaniy drayverlar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm infratuzilmasining kengayishi, transport va mehmonxona sektoridagi o'zgarishlar, raqamli xizmatlar (OTA platformalari, mobil ilovalar, smart-servislar)ning joriy etilishi hamda madaniy meros, eventifikatsiya va film-indutsiyalangan turizm kabi sotsiomadaniy omillarning ichki turizmga ta'sir mexanizmlari empirik ma'lumotlar asosida baholanadi. Shuningdek, 403 respondent ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari ichki bozorda iste'molchi xulq-atvori, PR kanallari samaradorligi va qaror qabul qilish drayverlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalari O'zbekiston ichki turizmining barqaror rivojlanishi infratuzilma modernizatsiyasi, raqamli transformatsiya va hududiy brendingning integratsiyalashgan kommunikatsiya siyosatini talab etishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ichki turizm, infratuzilma, raqamli xizmatlar, sotsiomadaniy omillar, PR texnologiyalari, PESO modeli, eventifikatsiya, film-indutsiyalangan turizm, smart turizm, segmentatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N49>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda ichki turizm milliy iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Turizm siyosatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli xizmatlar salmog'ini oshirish va madaniy meros resurslarini samarali integratsiyalashtirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari ichki bozorda

talabning o'sishini ta'minlamoqda. Xususan, 2017–2025-yillar davrida amalga oshirilgan huquqiy-tashkiliy islohotlar, sayohat mahsulotlarining diversifikatsiya qilinishi, transport va mehmonxona sektorining kengayishi ichki turizmni istiqbolli tarmoqda aylantirdi.

Ichki turizm faqat sayohat faoliyati emas, balki hududiy rivojlanish, kichik biznesning qo'llanilishi, servis va xizmatlar bozorining o'sishi, shuningdek madaniy identitetning mustahkamlanishi uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari va axborot xizmatlarining ommalashuvi mahalliy aholida sayohatga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirdi. Istiqbolli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda yuzaga kelgan e-WOM, influenser kontenti va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq kommunikatsiyalar ichki turizm iste'molchilari qaror qabul qilish jarayonida yetakchi omillarga aylanmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatning madaniy merosi, an'anaviy qadriyatlari, festivallar va hududiy tadbirlar (eventifikatsiya), shuningdek film-indutsiyalangan turizm kabi sotsiomadaniy omillar turistik oqimni shakllantirishda mavqeyini kuchaytirmoqda. Mazkur drayverlarning o'zaro bog'liq holda amal qilishi ichki turizmni rivojlantirishda kompleks yondashuvni talab etadi.

Ushbu maqolada 2017–2025-yillar davrida O'zbekiston ichki turizmining infratuzilmaviy, raqamli va sotsiomadaniy rivojlanish drayverlari ilmiy-tahliliy asosda o'rganiladi. Tahlil jarayonida empirik ma'lumotlar, rasmiy statistika, davlat dasturlari, OTM va xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda sotsiologik so'rov natijalari asosiy manba sifatida qo'llaniladi. Mazkur yondashuv ichki turizmning zamonaviy rivojlanish modelini va uning PR-kommunikatsiya jarayonlari bilan bog'liq metodologik poydevorini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turizm sohasidagi zamonaviy ilmiy-amaliy tadqiqotlar ichki turizm rivojlanishini infratuzilma, raqamli xizmatlar va sotsiomadaniy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish orqali anglatishni talab etadi. Ichki turizmning iqtisodiy va ijtimoiy tabiati Ingixartning post-modern jamiyatlardagi qadriyatlar transformatsiyasiga oid nazariyalari bilan ham uyg'un bo'lib, iste'molchilar xulq-atvorining o'zgaruvchanligi va tajribaga asoslangan iste'mol shakllarining kuchayishi ichki turizmdagi trendlarni izohlashda muhim metodologik asos vazifasini o'taydi [1; B.7.]. Falsafa va fan metodologiyasiga oid manbaalarda ta'kidlanganidek, hodisalarni tizimli o'rganish, multidissiplinar yondashuv va murakkab ijtimoiy jarayonlarni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda tahlil qilish turizm sohasi kabi ko'p omilli tarmoqlarda muhim ahamiyatga ega [2; B.25–26.].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki turizm rivojiga doir ilmiy manbalar bir necha yirik konseptual yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. **infratuzilmaviy yondashuv** — mehmonxona sektori, transport, servis va logistika tizimi turizm drayveri sifatida;
2. **raqamli transformatsiya modeli** — OTA platformalar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, QR-kodli axborot xizmatlari va open-data integratsiyasi;
3. **sotsiomadaniy yondashuv** — madaniy meros, eventification, film-induced tourism va storytelling orqali hudud imijini shakllantirish;
4. **PR va kommunikatsiya nazariyalari** — PESO miksi, e-WOM, influenser kommunikatsiyasi, UGC va tajribaga asoslangan marketing.

Bu nazariyalar va amaliyotlar jahon turizm olimlari — Richards, Palmer, Biton, Hol va Sharplar tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, ularning ishlari turizmning sotsiomadaniy strukturasi, iven industriyasining shaxar imijiga ta'siri va film indutsiyasi orqali turizm oqimlarining shakllanishi kabi jarayonlarni ilmiy asosda tushuntirib beradi. Masalan, Richards va Palmerning "Eventful City" konsepsiyasi iventifikatsiyani shaharlar rivojining strategik vositasi sifatida ko'rib, tadbirlar orqali hudud brendi va turistik jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini izohlaydi [3; B.41.]. Bitonning "Film-Induced Tourism" konsepsiyasi esa kino va seriallarda aks etgan hududlarning turistik oqimga ta'sirini empirik asosda ochib beradi [4; B.121.].

Metodologiya qismida tadqiqotning ilmiy asosi sifatida integratsiyalashgan yondashuv qo'llanildi. Unga ko'ra, ichki turizm ko'p omilli tizim deb qaraladi va har bir omil (infratuzilma, raqamli xizmatlar, sotsiomadaniy muhit, PR kommunikatsiyasi) alohida emas, balki o'zaro ta'sirda tahlil qilinadi. Tadqiqotda quyidagi metodlar tatbiq etildi:

1) Tizimli tahlil — ichki turizmni yagona infratuzilmaviy, raqamli va madaniy kompleks sifatida o'rganish;

2) Qiyosiy tahlil — Samarqand, Buxoro, Xiva, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi hududlar misolida infratuzilmaviy va PR potensialini solishtirish;

3) Kontent tahlili — festivallar, tadbirlar, film va seriallar orqali hudud brendini shakllantiruvchi kontentni o'rganish;

4) Empirik so'rovnoma — 403 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov orqali ichki turistlarning xulq-atvori, qaror drayverlari va PR kanallari samaradorligini o'lchash;

5) Aniq statistik tahlil — rasmiy davlat hisobotlari, hududiy statistika va xalqaro manbalar (UNWTO, UNESCO) asosida sayohat dinamikasini baholash;

6) Geografik klaster tahlili — ichki turizm yo'nalishlarining (Ipak yo'li meros shaharlari, tog'-ko'l yo'nalishlari, arxeologik maskanlar) hududiy klasterlarga ajralishi, infrastruktura va PR bilan uyg'unligi.

Metodologik yondashuvning markazida "ivent → kontent → raqamli interfaollik" zanjiri yotadi. Bu zanjir eventification orqali tajriba yaratish, storytelling orqali uni mazmunlashtirish va raqamli platforma orqali auditoriya bilan muloqotni ta'minlashdan iborat. Shuningdek, PESO miksida "Shared" va "Earned" segmentlarining (e-WOM, bloggerlar, inflyuenserlar, UGC) kuchayishi ichki turizm PR strategiyasining qayta dizayn qilinishi lozimligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlili shuni namoyon qiladiki, O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishi faqat infratuzilmaga emas, balki raqamli kommunikatsiya sifatining oshishi, aholining sayohat madaniyati va PR texnologiyalarining zamonaviylashuviga ham bog'liq. Shu sababli, ushbu tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilishi ichki bozordagi o'zgaruvchan talab, kontent iste'moli va turistik xulq-atvorni chuqur o'rganish imkonini berdi.

Muhokama. Ichki turizm rivojlanishi nazariy va amaliy jihatdan ko'p omilli soha bo'lib, uning mazmun-mohiyatini ochib berishda atamalarning izchil talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki turizm, UNWTO ta'rifiga ko'ra, mamlakat fuqarolarining o'z mamlakati hududida amalga oshiradigan sayohatlari sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni rag'batlantiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi [5]. U milliy iqtisodiyotning ichki resurslarini faollashtirib, hududiy infratuzilmani takomillashtirish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Zamonaviy PR texnologiyalari ichki turizmni targ'ib

qilishda raqamli vositalardan foydalanishni kuchaytirib, auditoriyaning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. PESO miksidagi "Paid", "Earned", "Shared" va "Owned" kanallarining uyg'unlashuvi turizm sohasida kommunikatsiyaning integratsiyalashgan modelini vujudga keltirib, ijtimoiy tarmoqlar va blogerlik faoliyati orqali tarqaladigan e-WOM kontentning ahamiyati keskin ortadi. "Eventification" atamasi hududlarning turistik imijini festivallar, ko'rgazmalar va madaniy tadbirlar orqali shakllantirish jarayonini anglatadi; Richards va Palmer tomonidan ilgari surilgan "Eventful City" konsepsiyasida bu jarayon shahar brendingi va turistik jozibadorlikning asosiy vositasi sifatida talqin qilingan [3; p.41]. Shu bilan birga, kino-indutsiyalangan turizm Beeton tomonidan ekran orqali emotsional ta'sir orqali sayohat motivatsiyasining kuchayishi sifatida izohlangan bo'lib, film va seriallarda aks etgan manzillarga qiziqish ortishi ichki turizm oqimini shakllantirishga xizmat qiladi [4; p.121]. Smart turizm esa raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, mobil ilovalar va interaktiv xizmatlarning kompleks tarzda qo'llanilishi asosida turistik tajribani shaxsiylashtirish va ma'lumotlarga tezkor kirish imkoniyatini yaratadi.

2017–2025-yillarda O'zbekistonda ichki turizmning rivojlanishi turizm siyosatining liberallashtirish, infratuzilmaviy investitsiyalar va raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Prezident farmon va qarorlari bilan turizm milliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, viza rejimining yengillashtirilishi, elektron viza tizimining joriy etilishi va servis standartlarining yangilanishi sohadagi yangi bosqichni belgilab berdi [6]. Mehmonxona va transport infratuzilmasining kengayishi mamlakat ichidagi safarlarning qulayligini ta'minladi: Samarqand, Buxoro va Xivada restavratsiya ishlari amalga oshirilib, Chorvoq va Hisor tog'larida eko-turizm yo'nalishlari yaratildi, Qashqadaryo va Surxondaryoda folklor tadbirlari va madaniy festivallar tashkil etildi. Qashqadaryoda 63 ta joylashtirish obyekti faoliyat yuritib, ularning aksariyati mehmonxona segmentiga to'g'ri kelishi hududdagi infratuzilma salohiyati ancha yuqori ekanini anglatadi, biroq chekka tumanlarda obyektlar yetishmasligi hududiy asimmetriyani yuzaga keltirmoqda [7]. Surxondaryo viloyatida 597,1 mlrd so'mlik 118 ta loyihaning amalga oshirilgani so'nggi yillarda turizm infratuzilmasiga investitsiyalar jadal o'sganidan dalolat beradi [8]. Biroq ayrim hududlarda glemping, kemping va "so'nggi mil" logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmagani barqaror o'sishga cheklov bo'lib qolmoqda.

Raqamli transformatsiya ichki turizmga xizmatlarni bronlashtirish va axborotga kirishni integratsiyalashtirib, raqobatbardosh muhitni kuchaytirdi. "UzAirways", "UzRailway" va "Uzbekistan Travel" platformalari orqali elektron chiptalar sotilishi, QR-kodli gidlar va virtual ekskursiyalar ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlab, sayohat jarayonini yanada oddiylashtirdi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab umumiy turistik daromadning 60–70 foizi ichki turizm hissasiga to'g'ri keladi [9]; bu tendensiya O'zbekistonda ham o'z aksini topib, mahalliy bozorning iqtisodiy ahamiyati ortganini ko'rsatadi.

Ichki turizm rivojida sotsiomadaniy omillar — milliy meros, an'anaviy qadriyatlar, festivallar, hikoya qilish (storytelling) va madaniy identifikatsiya — muhim rol o'ynaydi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning YUNESKO meros obyekti sifatidagi maqomi ichki turizm uchun ham kuchli motivatsion drayver bo'lib xizmat qilmoqda [10]. Yoshlar segmentida "Ibrat farzandlari" kabi loyihalarning o'rni alohida bo'lib, ular ta'limiy sayohatlar va ijtimoiy loyihalar orqali ichki turizmga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda [11]. Ziyorat turizmida Buxoro va Samarqanddagi muqaddas maskanlar yetakchilik qilib, Orziqulov ta'kidlaganidek,

ushbu yo'nalishlar ma'naviy qadriyatlar va tarixiy meros bilan uzviy bog'liq bo'lib, mahalliy aholida diniy-ijtimoiy identifikatsiya mexanizmlarini mustahkamlaydi. "Eventification" modelining eng samarali misollari Samarqanddagi xalqaro tadbirlar va Xivadagi 2024-yilda berilgan "Islom dunyosining turizm poytaxti" maqomida namoyon bo'ldi; film-indutsiyalangan turizm esa "Mendirman Jaloliddin" seriali orqali Xorazm va Termizga bo'lgan qiziqishni oshirdi [12].

403 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma ichki bozordagi segmentlar va PR ta'sirining aniq manzarasini ko'rsatdi. Respondentlarning 59 foizi so'nggi bir yilda ichki sayohat qilgani, qaror qabul qilishda ijtimoiy tarmoqlar (40,9%) yetakchi omil bo'lgani, eng talabgir yo'nalishlar ekoturizm (39,4%), gastronomik turizm (35,1%) va ziyorat turizmi bo'lgani ma'lum bo'ldi. PR ta'siri o'rtacha 3,17 ballni tashkil etib, Instagram, TikTok, YouTube kabi raqamli platformalar eng samarali kommunikatsiya kanallari sifatida qayd etildi. Tanlov kriteriyalari orasida narx-moslik (33,1%) va xavfsizlik (20,5%) yetakchilik qildi; bu esa PR strategiyalarida aniq axborot, shaffof narx siyosati va ishonchni kuchaytirishning ahamiyatini oshiradi.

Biroq rivojlanish bilan bir qatorda xavf va cheklovlar ham mavjud: mavsumiylik, kadrlar malakasi pastligi, ma'lumot asimmetriyasi va xizmat ko'rsatish darajasidagi nomutanosibliklar ichki turizm tadbirlarining samaradorligini kamaytirmoqda. Shuningdek, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada emasligi — ayniqsa, qishloq turizm, glemping va transport logistikasi sohalarida — hududiy turizm diversifikatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "Eventification" va "storytelling" usullari Samarqand va Xivada yuqori samara bergan bo'lsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda PR va infratuzilma o'rtasidagi nomutanosiblik natijalarni cheklamoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, ichki turizm PR faoliyati tranzaksion modeldan interaktiv hamkorlikka asoslangan tajriba- markazlashgan modelga o'tdi. Eventification, film-induced tourism va smart tourism elementlarining birlashishi natijasida "ivent → kontent → raqamli interfaollik" zanjiri shakllandi. Umuman olganda, O'zbekiston ichki turizm rivojida hududiy diversifikatsiya, raqamli innovatsiyalar va ishonchga asoslangan kommunikatsiya modellarini mustahkamlash muhim strategik vazifa bo'lib qolmoqda.

Natijalar. Olingan tahliliy natijalar O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishining infratuzilmaviy, raqamli va sotsiomadaniy omillari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritishini ko'rsatadi. Birinchidan, 2017–2025-yillarda amalga oshirilgan huquqiy-tashkiliy islohotlar, viza va migratsiya tizimining liberallashtirilishi, mehmonxona va transport infratuzilmasining kengaytirilishi ichki turizmni rivojlantirishda hal qiluvchi drayver vazifasini o'tagani aniqlandi. Bu jarayon xizmatlar ko'lamini oshirib, hududiy turizm klasterlarining shakllanishiga zamin yaratdi; xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Chorvoq va Hisor kabi maskanlarda infratuzilma investitsiyasi va turistik marshrutlarning diversifikatsiyasi ichki bozorda talabni barqaror oshirgani kuzatildi. Shu bilan birga, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi hududlarda infratuzilmaning noteng rivojlangani ichki turizm oqimining hududiy asimmetriyasini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya ichki turizmning barqaror o'sishida strategik ahamiyat kasb etayotganini so'rovnoma natijalari va xizmat ko'rsatish jarayonlaridan olingan empirik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Bronlashtirish platformalarining ommalashuvi, mobil ilovalar, QR-kodli gidlar, virtual ekskursiyalar va "open data" orqali axborotga kirish

imkoniyatining oshishi sayohat jarayonining shaffofligi va tezkorligini ta'minlab, mahalliy aholi uchun safarni rejalashtirishni ancha osonlashtirgani qayd etildi. Respondentlarning 40 foizdan ortiq qismi ijtimoiy tarmoqlarni asosiy axborot manbai sifatida ko'rsatgani PR texnologiyalarining raqamli kanallarga keskin o'tganini anglatadi. Shundan kelib chiqib, raqamli kommunikatsiya mexanizmlari — Instagram, TikTok, YouTube — ichki turizmni targ'ib qilishda yetakchi vositalarga aylangani aniqlandi.

Uchinchi, sotsiomadaniy omillar — milliy meros, festivallar, madaniy tadbirlar, storytelling va film-induced turizm — ichki turizmga emotsional va identifikatsiyaviy motivlarni kuchaytirib, hududiy turistik imijning shakllanishida muhim o'rin tutayotgani ma'lum bo'ldi. Eventification modeli ayniqsa Samarqand va Xivada yuqori samara bergan bo'lib, xalqaro tadbirlar, festivallar va tarixiy makonlar brendingini ta'minlashda PR faoliyatining ta'sirchanligi oshgan. Film-induced turizm misolida "Mendirman Jaloliddin" seriali Xorazm va Termizga bo'lgan qiziqishni oshirgani, yoshlar segmentida esa "Ibrat farzandlari" kabi loyihalar ta'limiy-madaniy sayohatlarni rag'batlantirgani tahlildan ayon bo'ldi. Bu jarayonlar ichki turizmga kontent asosli kommunikatsiya strategiyasining ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

To'rtinchi, so'rovnoma natijalari talab modellarining o'zgaruvchan va segmentlashgan xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Ekoturizm, gastronomik turizm va ziyorat turizmi respondentlar tomonidan eng ko'p tanlangan yo'nalishlar sifatida qayd etildi; tanlashdagi asosiy drayverlar narx-moslik, xavfsizlik va servis sifati bo'ldi. PR ta'siri o'rtacha 3,17 ball bilan baholangani kommunikatsiyaning ahamiyati yuqori bo'lsa-da, uning samaradorligi kontent sifatidan va ishonch darajasidan kuchli ravishda bog'liq ekanini anglatadi. Shuningdek, raqamli kontentning qisqa videolar formatida iste'mol qilinayotgani PR strategiyalarini yangi mediamakon talablariga moslashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Beshinchi, tahlil natijalariga ko'ra, ichki turizmga barqaror rivojlanishga to'siq bo'layotgan omillar ham mavjud: mavsumiylik, kadrlar malakasi pastligi, ma'lumot asimmetriyasi, gigiyena va xavfsizlik standartlarining notengligi, hududiy infratuzilmaning bir xil rivojlanmaganligi. Bu muammolar biz uchun infratuzilma va PR siyosatining o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanishi zarurligini anglatadi; ya'ni faqat kontent bilan emas, balki xizmat ko'rsatish sifati va jismoniy infratuzilma bilan birgalikda kompleks rivojlanish talab etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston ichki turizmning rivojlanishida infratuzilma modernizatsiyasi, raqamli innovatsiyalar, sotsiomadaniy meros va integratsiyalashgan PR strategiyalarining o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqladi. Bu esa ichki turizmni targ'ib qilishda "ivent → kontent → raqamli interfaollik" zanjiriga asoslangan, aniq segmentlarga yo'naltirilgan va emotsional tajribani shakllantiradigan kompleks kommunikatsiya modelini taklif etadi. Shu bilan birga, ichki turizmni barqaror rivojlantirish uchun aniq axborot, xizmat sifati, infratuzilmaviy barqarorlik va raqamli imkoniyatlarni uyg'unlashtiruvchi milliy strategik yondashuvni shakllantirish zarurligi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishining infratuzilmaviy modernizatsiya, raqamli transformatsiya va sotsiomadaniy omillar o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshayotgan murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanini aniq ko'rsatdi. Siyosiy-xuquqiy islohotlar, servis tarmoqlarining kengayishi, transport va mehmonxona

infratuzilmasining yangilanishi ichki turizmning barqaror o'sishida hal qiluvchi omil bo'lib, hududiy turizm klasterlarining shakllanishi va bozorda talabning diversifikatsiyalanishiga xizmat qildi. Raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi — elektron bronlashtirish, QR-gidlar, virtual ekskursiyalar va mobil platformalar — ichki turistlarning axborotga kirishini osonlashtirib, sayohatni rejalashtirish jarayonini tezkor va shaffof qildi; ijtimoiy tarmoqlarning asosiy kommunikatsiya kanallariga aylanishi esa PR strategiyalarida raqamli kontent va qisqa videoformatlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanini namoyon etdi.

Sotsiomadaniy omillar — milliy meros, madaniy tadbirlar, “storytelling” va film-indutsiyalangan turizm — ichki turizmga emotsional va identifikatsiyaviy motivlarni kuchaytirib, hududlarning turistik imijini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Samarqand, Buxoro va Xivadagi restavratsiya va brending ishlari, festival-iventlar va xalqaro tadbirlar “eventification” modelining samaradorligini yuksaltirgan bo'lsa, serial va kino loyihalari orqali shakllangan kontent-PR yo'nalishlari ichki turizm oqimini rag'batlantirishda sezilarli natija berdi. So'rovnoma ma'lumotlari ichki bozorda ekoturizm, gastronomik va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlar yetakchilik qilib, qaror qabul qilishda narx-moslik, xavfsizlik va servis sifatining asosiy hal qiluvchi ekanini tasdiqladi.

Shu bilan birga, mavjud muammolar — mavsumiylik, kadrlar malakasi hamda xizmat ko'rsatish sifatining notengligi, chekka hududlarda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani va ma'lumot asimmetriyasi — ichki turizmning barqaror rivojiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida qayd etildi. Bu esa infratuzilma, raqamli xizmatlar va PR siyosatini bir-birini to'ldiruvchi integratsiyalashgan model asosida rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishini ta'minlash uchun kompleks, ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini ko'rsatdi. “Ivent → kontent → raqamli interfaollik” zanjiriga asoslangan, segmentlarga yo'naltirilgan kommunikatsiya strategiyalari, barqaror infratuzilma siyosati va milliy madaniy merosga tayangan sotsiomadaniy drayverlar ichki turizmning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Barqaror ichki turizmni shakllantirish, shu bois, faqat servis va infratuzilmani emas, balki raqamli innovatsiyalar, madaniy meros, xizmatchi kompetensiyasi va strategik PR modellarini birlashtirgan holda amalga oshirilishi zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Inglehart, R. Culture Shift in Advanced Industrial Society. Princeton: Princeton University Press, 1990. – 484 p.
2. Мўминов Ф.А. Журналистика сотсиологияси ва психологияси. – Ж. 10. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2019. – 220 б.
3. Richards, G., Palmer, R. The Eventful City: Cultural Management and Urban Revitalization. – London: Routledge, 2010. – 192 p.
4. Beeton, S. Film-Induced Tourism. – Bristol: Channel View Publications, 2016. – 240 p.
5. UNWTO. Understanding Tourism: Basic Glossary. – Madrid: UNWTO, 2019. – 34 p.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Туризм соҳасини жадал ривожлантириш... – <https://lex.uz/uz/docs/3077025>
7. Қашқадарё вилояти туризм статистикаси. – <https://qashstat.uz/uploads/press23/Turizm23.pdf>
8. Сурхондарё туризм салоҳияти ҳақида таҳлилий мақола. – <https://review.uz/oz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar>
9. UNWTO. International Tourism Highlights. – Madrid: World Tourism Organization, 2022. – 86 p.

10. Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамаси. ЮНЕСКО мероси бўйича қарор. – <https://lex.uz/docs/5320217>
11. Zomin – “Ibrat farzandlari” yoshlar loyihasi. – <https://jdpu.uz/zomin-tumanida-ibrat-farzandlari-oringohiga-start-berildi/>
12. “Mendirman Jaloliddin” seriali sabab Samarqand, Buxoro va Xivaga sayohat qildim — Mehmet Bozdog‘. <https://buxoroisharif.uz/11205/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).